

Alisher Navoiy ijodida Adib Ahmad qarahlari talqini

**SamDU magistranti
Shukurova Amira**

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan asarlar, ularda tasvirlangan komil inson, odil shoh, adolatli jamiyat kabi g'oyalarning shakllanishida boshqa mumtoz manbalar qatorida, "Hibat ul-haqoyiq" hikmatlarining ham ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Ahmad Yugnakiy X-XII asrlar o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, iste'dodli shoirdir. Shoirning hayoti, ijtimoiy faoliyati va ijodi haqida juda oz ma'lumotlarga egamiz. Alisher Navoiyning mashoyix shayxlar va avliyolar haqida bitilgan "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidan Ahmad Yugnakiy haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Demak, Adib Ahmad o'z davrining avliyosifat kishilaridan biri bo'lgan. Navoiy Adib Ahmad turk elidan ekanligini qayd etib, uni "ziyrak, zakiy, zohid kishi"¹ deya ta'riflaydi. Alisher Navoiy yozadi: "Derlarki, ko'zlari butov ermishki, also zohir ermas ermish. Basir bo'lub, o'zga basirlardek andoq emas emishki, ko'z bo'lg'ay... Haq taolo agarchi zohir ko'zin yopiq yaratqandur, ammo ko'ngli ko'zin yoruq qilg'ondur".

Bu haqda Ahmad Yugnakiyning o'zi ham "Tug'a ko'rmas edi adibning ko'zi"², - deya ma'lumot beradi.

Navoiy e'tirofiga ko'ra, Yugnakiyning "aksar turk ulusida hikmat va nuktalari shoe'dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur" deb, quyidagi baytlarni keltiradi:

So'ngakka iliktur, eranga bilik,
Biliksiz eran ul iliksiz so'ngak.³

Bayt ilm o'rganish haqida bo'lib, tashbeh san'ati orqali fikr asosli bayon etilgan. "Nasoyim ul-muhabbat" da keltirilgan bu bayt "Hibat ul-haqoyiq" dostonida quyidagicha uchraydi:

So'ngakka yiliktek, eranga bilik,
Eran ko'rki aql ul, so'ngakning yilik.
Biliksiz iliksiz so'ngakning xoli
Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik.⁴

Bundan tashqari, Alisher Navoiy adib Ahmadga yana bir baytni nisbat beradi:

Ulug'lar ne bersa yemasmen dema,
Ilik sun, og'iz ur yemasang yema.

¹ A. Навоий. Асарлар. 15-том. 1968. 156-бет

² А. Югнакий. Ҳиббат ул-ҳақоийк. Нашрга тай. Қ. Маҳмудов Т., 1971.

³ А. Навоий. Асарлар. 15-том. 1968. 157-бет.

⁴ А. Югнакий. Ҳибат ул-ҳақоийк. Нашрга тай. Қ. Маҳмудов Т., 1971. 41-бет.

Bu bayt ehtirom haqida bo'lib, "ulug'" so'zining ma'nosi keng. Asl ma'nosi "katta" bo'lsa-da ko'pincha yoshi ulug', qadri baland, hurmatga sazovor, mavqe yuksak kishilarga nisbatan ishlatiladi. Fikr dasturxon odobi vositasida tushuntirilmoqda. Kengroq mazmunda esa o'zingdan katta, tajribali, dunyo ko'rgan kishilarning nasihatiga quloq sol, ular haqida o'ylab ko'r. Chunki ular keraksiz so'zni so'zlamaydilar. Navoiy tomonidan keltirilgan bu bayt "Hibat ul haqoyiq" dostoning nashr etilgan oltita nusxasida ham uchramaydi.

Demak, bu baytlar f.f.d. prof. A. Hayitmetov haqli ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy o'qigan dostonning mukammalroq yettinchi nusxasidan olingan bo'lishi mumkin. Yoki Navoiy xalq orasida mashhur bo'lgan baytlarni keltirgan. Chunki o'z davri adabiyotidagi yarq etgan yangilik Navoiy nazaridan chetda qolmagan.

Navoiyning buyuk dostonlari, xotiro-t u risolalari, ilmiy asarlari yaratilishida salaflari va o'zigacha ijod etgan ijodkorlarning ta'sirlari bo'lgan. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq"i buyuk shoirning komil inson xususidagi hikmatlariga ilhom berdi",⁵ – deyiladi, "Navoiyning nigohi tushgan" kitobida.

"Nasoyim ul-muhabbat", "Munshoat" asarlarida parchalar keltirib tahsin o'qigan Alisher Navoiy Navoiy adib Ahmadning otashin targ'ibotchisi va muxlisi edi.

Navoiy Ahmad Yugnakiy ijodini yuqori baholab uni pandnovaiy xarakterda ekanligini o'z asarida qayd etib o'tadi va ikki ijodkor ijodida g'oyaviy yaqinlikni kuzatamiz.

"Hibat ul-haqoyiq" dostonining uchinchi bobida quyidagi to'rtlik mavjud.

Bu dunyo nengitin yegu kezugluk,
Ul ortuq tilama vabal yitgulik.
Tariqlik teb aydi achunni Rasul,
Tariqlikda qatlan tari edgulik.

Ya'ni "bu dunyo boyligidan yegulik, kiygulik bo'lsa yetarli, ortiqcha tilama, uning oshiqchasi og'irlik qiladi. Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ey ekin ekuvchi ekin ekishda kechikma". Bu to'rtlikka asos bo'lgan manba payg'ambar (a.s.) ning "Dunyo oxiratning ekinzoridir" degan hadislari hisoblanadi. Ushbu hadis A. Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni "Karam ta'rifi..." bayonida keltiriladi:

Dunyo erur mazraai foxira,
"Al dunyo mazraat ul oxira".

Ya'ni ikki ijodkor ham bu hadisni bir g'oyani isbotlash uchun keltiradi.

"Hibat ul-haqoyiq"da "Tilni asrash, odob va yaxshi odatlarga intilish" deb nomlangan ikkinchi bob tarkibida bitta alohida sarlavha mavjud: "Jarahatus sihami lahat tiyamu va la yalsamu ma jarahallisani" – "O'q bilan yetkazilgan jarohat bitib ketadi, biroq til bilan yetkazilgan jarohat bitmaydi".⁶

Navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida shu g'oya ilgari surilgan quyidagi ruboiy mavjud:

Chun sinsa ko'ngul zaxmi zabon og'rig'idin,
Kim, ermas aning og'rig'i jon og'rig'idin

⁵ Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т., 1988.

⁶ Ўша асар. – Т., 1971.

Har neki sanga yetar lison og'rig'idin
Bilgilki, qatiq durur sinon og'rig'idin.⁷

Adib Ahmad dostonidagi quyida to'rtlik mavjud:

Sanib so'zlagan er so'zi so'z sag'i,
O'kush yangshag'an til ayalmas yagi.
So'nung bushlug' ezma yagi tut tiling,
Yetar boshqa bir kun bu til bo'shlig'i.⁸

Mazmuni: O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til ayovsiz dushmandir. So'zingni o'ylovsiz so'zlama, tilingni nazorat qil, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi.

“Nazm ul-javohir”da “Balo ul-insoni min al-lison”⁹ ya'ni “Insonga balo tilidan kelur” hikmati bo'lib, shu hikmat Navoiy tomonidan quyidagicha kengaytiriladi:

So'zidan kishikim g'amu balo hosildur,
Har nuktada tili desa balo doxildir,
Besirfa degan kishiga tili qotildir,
Alqissaki, kimsaning balosi tilidir.¹⁰

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan asarlar, ularda tasvirlangan komil inson, odil shoh, adolatli jamiyat kabi g'oyalarning shakllanishida boshqa mumtoz manbalar qatorida, “Hibat ul-haqoyiq” hikmatlarining ham ta'siri bo'lgan.

⁷ А. Навоий. Асарлар. 15-том. 1968. 34 бет.

⁸ Ўша асар. – Т., 1971. 78-бет.

⁹ А. Навоий. Асарлар. 15-том. 1968. 34 бет.

¹⁰ А. Навоий. Асарлар. 15-том. 1968. 34 бет.